



SOCIO-IDEOLOGICAL ACTIVITIES OF RADIO, PRESS, AND TELEVISION IN THE KHOREZM REGION (1950–1970)

Gulhayo Bobojanova

Independent Researcher

Department of History, Urgench State University

E-mail: gulhayobobojanova@gmail.com

Urgench, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Khorezm press, radio node, radio newspaper, television, Soviet ideology, communist propaganda, agriculture, cultural life, radio broadcasting.

Received: 14.01.26

Accepted: 15.01.26

Published: 16.01.26

Abstract: This article analyzes the socio-economic, cultural-educational, and ideological functions of radio broadcasting, radio newspapers, local press, and television operating in the Khorezm region during the period from the 1950s to the 1970s. The study examines the main areas of activity of radio nodes in the Khorezm region, including coverage of agriculture, cotton production, livestock breeding, mechanization, public health, and cultural life. In addition, based on historical sources, the article explores the development of radio and television within the framework of the concept of the “newspaper without paper and distance,” highlighting their technical capabilities, audience reach, and role in Soviet information policy. The local press and electronic mass media of the Khorezm region are assessed as the principal carriers of communist ideology at the regional level.

1950–1970-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA RADIO, MATBUOT VA TELEVIDENIYENING IJTIMOYIY-MAFKURAVIY FAOLIYATI

Gulhayo Bobojanova

Urganch davlat universiteti

Tarix kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: gulhayobobojanova@gmail.com

Urganch, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Xorazm matbuoti, **Annotatsiy:** Mazkur maqolada 1950–

radiouzel, radiogazeta, televideniye, sovet mafkurasi, kommunistik targ'ibot, qishloq xo'jaligi, madaniy hayot, radioeshittirish.

1970-yillarda Xorazm viloyatida faoliyat yuritgan radioeshittirishlar, radiogazetalar, mahalliy matbuot va televideniyeining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hamda mafkuraviy funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazm viloyati radiouzellari faoliyatining asosiy yo'nalishlari — qishloq xo'jaligi, paxtachilik, chorvachilik, mexanizatsiya, sog'liqni saqlash va madaniy hayotni yoritish masalalari yoritiladi. Shuningdek, radio va televideniyeining "qog'ozsiz va masofasiz gazeta" konsepsiyasi doirasidagi rivoji, texnik imkoniyatlari, auditoriya qamrovi va sovet axborot siyosatidagi o'rni tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Maqolada Xorazm matbuoti va elektron OAV kommunistik mafkuraning hududiy darajadagi asosiy tashuvchisi sifatida baholanadi.

ОБЩЕСТВЕННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РАДИО, ПЕЧАТИ И ТЕЛЕВИДЕНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В 1950–1970 ГГ

Гулхайё Бобожанова

Независимый исследователь,

кафедра истории, Ургенчский государственный университет

E-mail: gulhayobobojanova@gmail.com

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хорезмская пресса, радиоугёл, радиогазета, телевидение, советская идеология, коммунистическая пропаганда, сельское хозяйство, культурная жизнь, радиовещание.

Аннотация: В статье анализируются социально-экономические, культурно-просветительские и идеологические функции радиовещания, радиогазет, местной прессы и телевидения, действовавших в Хорезмской области в 1950–1970-е годы. В исследовании рассматриваются основные направления деятельности радиоуглов Хорезмской области, включая освещение сельского хозяйства, хлопководства, животноводства, механизации, здравоохранения и культурной жизни. Кроме того, на основе исторических источников раскрывается развитие радио и телевидения в рамках концепции «газеты без бумаги и расстояния», их технические возможности, охват аудитории и роль в системе советской информационной политики. В статье местная пресса и электронные средства массовой информации Хорезмской области оцениваются как основные носители

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Sovet Ittifoqida ommaviy axborot vositalari jamiyatni mafkuraviy boshqarishning muhim vositasiga aylandi. Xorazm viloyatida ham radio, matbuot va keyinchalik televideniye orqali aholini siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan safarbar etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ustuvor bo‘lgan hududlarda radiouzellar va radiogazetalar paxtakorlar, chorvadorlar va mutaxassislar uchun asosiy axborot manbai vazifasini bajardi.

Adabiyotlar tahlili. 1950–1970-yillarda Xorazm viloyatida radio, matbuot va televideniye faoliyati masalalari asosan davriy nashrlar orqali yoritilgan. Jumladan, “Kommunist Xorezma” gazetasida 1963-yilda e‘lon qilingan “Xorazmda televideniya markazining ishga tushirilishi” nomli maqolada viloyatda televideniyeining yo‘lga qo‘yilishi muhim madaniy voqea sifatida talqin etilib, ommaviy axborot vositalarining yangi bosqichga o‘tganligi qayd etilgan [1].

“Xorazm haqiqati” gazetasining 1965-yilgi sonlarida chop etilgan “Xalq og‘zaki ijodi – bebaho xazinamiz” maqolasida xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish va milliy madaniyatni asrash masalalari yoritilgan [2]. Shu nashrda e‘lon qilingan “Madaniyat uylari xalq xizmatida” maqolasida esa madaniyat muassasalarining viloyat hayotidagi o‘rni va ularning faoliyati tahlil qilingan [3].

“Yosh kommunist” gazetasining 1966-yil 2-mart sonida chop etilgan “Teatr – xalq qalbining oynasi” nomli maqolada Xorazm musiqali-drama teatrining sahna faoliyati, repertuari va tomoshabinlar bilan ishlash tajribasi yoritilgan [4].

Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish masalalarining matbuotda yoritilishi “Xorazm haqiqati” gazetasining 1967-yil 15-iyul sonida chop etilgan “Paxtachilar oldidagi yangi vazifalar” maqolasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda viloyat rahbarlarining ishlab chiqarish rejalariga oid qarashlari va irrigatsiya tizimidagi yangiliklar bayon etilgan [5].

Radioeshittirishlar faoliyatiga bag‘ishlangan “Radioeshittirish yanada yaxshilanadi” maqolasida Xorazm viloyatida radio va televideniye texnik bazasining holati, radiouzellardan foydalanishdagi kamchiliklar va mavjud muammolar tanqidiy ruhda ko‘tarilgan [6]. Shu bilan birga, qishloqlarni to‘liq radiolashtirish masalasida savdo tashkilotlarining sust faoliyati ham qayd etilgan [7].

Radio va televideniyeining rivojlanishi “Qog‘ozsiz va masofasiz gazeta” kontseptsiyasi asosida yoritilib, unda Sovet Ittifoqida radioeshittirishlarning ko‘p tilli xususiyati, efir qamrovi va texnik taraqqiyot ko‘rsatkichlari keltirilgan [8–9].

Yoshlarni kommunistik mehnat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari “Kommunist Xorezma” gazetasida chop etilgan “Leninga sadoqat bilan xizmat qilamiz” nomli maqolada o‘z ifodasini topgan [10].

Metodologik yondashuv. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil va manbashunoslik usullari qo‘llanildi. Davriy matbuot materiallari tarixiy manba sifatida baholanib, ularning mafkuraviy mazmuni va ijtimoiy funksiyalari kontekstual tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar esa sovet axborot siyosatining miqyosi va texnik imkoniyatlarini aniqlashda qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyati radiouzellari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, efirlarda paxta tayyorlash va yig‘im-terim jarayonlari muntazam ravishda yoritib borilgan. Xususan, “paxta tayyorlashning borishi” mavzusidagi eshittirishlar orqali paxtakorlar mehnati, hosilni o‘z vaqtida yig‘ib olish masalalari muhokama qilingan. Shu bilan birga, yem-xashak jamg‘arish va qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlar radioeshittirishlarning muhim mavzularidan biri bo‘lib, radiouzellar paxtakorlar, chorvadorlar va mutaxassislar uchun minbar vazifasini bajargan.

Radiouzellar orqali partiya qarorlari, jumladan, paxta narxlarini oshirish haqidagi qarorlar bir necha tillarda eshittirilgan. “Fermada nima gaplar?” kabi eshittirishlar orqali qishloq hayotining dolzarb masalalari yoritilib, aholi o‘rtasida siyosiy va ishlab chiqarish masalalariga oid xabardorlik oshirilgan. Bu jarayon radioeshittirishlarning ommani uyushtirish va mehnat faolligini kuchaytirishdagi rolini ko‘rsatadi.

Sog‘liqni saqlash va mexanizatsiya sohalarida ham radio faol qo‘llanilgan. Hududiy shifokorlar va lektorlar tomonidan jamoat salomatligi va gigiena masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalar tashkil etilgan. Jumladan, “Tozalik — sog‘liq garovi”, “Mexanizatsiyadan umumiy foydalanish” kabi mavzularda suhbatlar o‘tkazilgan. Bu chiqishlar aholining sanitariya-gigiyena madaniyatini oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligida texnikadan foydalanish ko‘nikmalarini targ‘ib qilishga xizmat qilgan. Radio kommunistik tarbiyaning kuchli g‘oyaviy vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Efirlarda kolxozlarning madaniy hayoti, turli tadbirlar va ilg‘or ish tajribalari yoritilgan. Matbuot, radio va televideniye orqali amalga oshirilgan targ‘ibotning asosiy vazifasi ishchi va mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashdan iborat bo‘lgan. Targ‘ibotning asosiy vazifalari qatoriga Kommunistik partiya qarorlarini, xususan KPSSning XXII s‘ezdi qarorlari va Partiya dasturini keng targ‘ib qilish kirgan. Ommaviy axborot vositalari kommunizm qurilishi uchun kurashda samarali targ‘ibotchi va agitator sifatida faoliyat yuritishi lozim edi.

Radio va matbuot ommani uyushtiruvchi, paxtakorlar, chorvadorlar hamda mutaxassislar orasida ilg‘or tajribani targ‘ib etuvchi “tribuna” vazifasini bajargan. Buning asosiy maqsadi

kolxoz qishloq aholisi mehnat faolligini oshirishdan iborat bo'lgan. Asosiy qishloq xo'jaligi ishlarining borishi — paxta tayyorlash jarayoni, yem-xashak yig'ish va mexanizatsiya masalalari faol yoritilgan. Shuningdek, paxta uchun oshirilgan xarid narxlari haqidagi partiya qarorlari ham radio orqali tarqatilgan.

Aholini ma'naviy ozuqa va madaniy xizmat bilan ta'minlash ham radio va matbuot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Kolxozlardagi madaniy hayot yoritilib, ijtimoiy ahamiyatga ega mavzularda ma'ruzalar o'tkazilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda joylarda har kuni chiquvchi "radio-gazeta" shakli keng qo'llanilgan.

1960-yillar boshida Xorazm viloyati aloqa boshqarmasi eshittirish tarmog'ini kengaytirish bo'yicha harakatlarga qaramay, jiddiy texnik va tashkiliy muammolarga duch kelgan. Ayrim radiouzellardan berilayotgan eshittirishlar sifatsiz bo'lib, kuchli shovqin va xalaqitlar kuzatilgan. Tinglovchilar bunday eshittirishlarni "gung radio" deb atagan. Telefon va radiotarmoqlar, shuningdek, radiotochka xizmatining ta'mirlash va ekspluatatsiya ishlari qoniqarsiz deb baholangan. Radiotochka va balandovozlarni ta'mirlash va almashtirishda, shuningdek, radioqabul qilgich va televizorlarni ta'mirlashda jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lgan.

Ayrim hollarda, masalan, Yangiariq tumanidagi radiouzel ta'miri bo'yicha kolxozchilarning talablari kolxoz boshqaruvi tomonidan hisobga olinmagan. Ushbu muammolarni bartaraf etish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida Respublika Hukumati barcha kolxoz radiotarmoqlari va uzellarini viloyat aloqa boshqarmasi tasarrufiga o'tkazish to'g'risida maxsus qaror qabul qilgan.

1963-yilda "Kommunist Xorezma" gazetasida Xorazmda televideniya markazining ishga tushirilishi haqida maxsus maqolalar chop etilib, bu voqea viloyat hayotida muhim madaniy voqea sifatida talqin etilgan [1]. 1960-yillarda madaniyat uylari, klub va kinoteatrlar faoliyati matbuot sahifalarida keng yoritilgan. Nashrlar orqali milliy musiqa, sahna san'ati va tarixiy an'analarni tiklashga oid materiallar e'lon qilingan.

"Xorazm haqiqati" gazetasining 1965-yilgi sonlarida "Xalq og'zaki ijodi – bebaho xazinamiz" [2] hamda "Madaniyat uylari xalq xizmatida" [3] kabi maqolalar chop etilib, unda xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish va mahalliy teatr truppalarining faoliyati masalalari yoritilgan. "Yosh kommunist" gazetasining 1966-yil 2-mart sonida e'lon qilingan "Teatr – xalq qalbining oynasi" nomli maqolada Xorazm musiqali-drama teatrining sahna ishlari haqida batafsil ma'lumot berilgan [4].

Xorazm matbuoti viloyatdagi xalq deputatlari kengashlari va partiya qo'mitalari qarorlarini keng yoritib borgan. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1967-yil 15-iyul sonida chop etilgan

“Paxtachilar oldidagi yangi vazifalar” maqolasida ishlab chiqarish rejalari, irrigatsiya tizimidagi islohotlar va mexanizatsiya vositalari joriy etilgani yoritilgan [5].

“Radioeshittirish yanada yaxshilanadi” nomli maqolada Xorazm viloyatida 1500 ga yaqin xonadonda televizorlar ishlab turgani, Urganchdan berilayotgan eshittirishlarni Qoraqolpog‘iston ASSR va Toshhovuz oblasti mehnatkashlari ham tomosha qilayotgani qayd etilgan [6]. Shu bilan birga, ayrim kolxoz rahbarlarining radiouzellardan maqsadga muvofiq foydalanmayotgani, radiomontaj ishlarining mutaxassis bo‘lmagan shaxslar tomonidan bajarilayotgani va qishloqlarni radiolashtirish uchun zarur materiallarning o‘z vaqtida yetkazib berilmayotgani tanqid qilingan [7].

“Qog‘ozsiz va masofasiz gazeta” nomli xabarlarda Radio kunining Sovet jamiyatidagi o‘rni, radioeshittirishlarning 102 tilda, jumladan 38 ta ajnabiy tilda olib borilishi, Moskvadan uzatilgan radioeshittirishlarning 70 dan ortiq mamlakatga yetib borishi qayd etilgan [8]. Shuningdek, keyingi besh yil ichida SSSRda televizorlar soni 450 mingdan 5 millionga yetgani, 1965-yilga borib ularning qariyb 25 millionga yetishi, O‘zbekistonda esa 500 mingga yaqin radio va priyomniklar, 950 ta radiotranslyatsiya stansiyalari hamda 150 mingdan ortiq televizor mavjudligi ko‘rsatib berilgan [9].

“Leninga sadoqat bilan xizmat qilamiz” nomli maqolada yoshlarni kommunistik mehnat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan bo‘lib, bu hol matbuotning mafkuraviy tarbiya vositasi sifatidagi rolini ko‘rsatadi [10].

Xulosa. 1950–1970-yillarda Xorazm viloyatida faoliyat yuritgan matbuot, radio va televideniye kommunistik mafkura doirasida ishlagan bo‘lsa-da, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu OAV mehnat qahramonligini targ‘ib qilish, madaniy merosni saqlash, aholining ma‘naviy saviyasini oshirish va ijtimoiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynadi. Xorazm matbuoti va elektron OAV faoliyatini o‘rganish bugungi tarixshunoslik uchun sovet davri ijtimoiy-siyosiy muhitini tahlil etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Коммунист Хорезма” gazetasining 1963-yilgi sonlari
2. “Xorazm haqiqati” gazetasining 1965-yilgi sonlari
3. “Xorazm haqiqati” gazetasining 1965-yilgi sonlari
4. “Yosh kommunist” gazetasining 1966-yil 2-mart soni
5. “Xorazm haqiqati” gazetasining 1967-yil 15-iyul soni
6. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1962 йил 6-май. №89 (9295). Иккничи саҳифа.
7. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1962 йил 6-май. №89 (9295). Иккничи саҳифа

8. (Kommunist Xorezma, 1969-yil 7-noyabr)